

**Doimiy aholi soni.** Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2020 yil 1 aprel holatiga 3 892,5 ming kishini tashkil etib, 2020 yil boshidan 15,2 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1442,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,1 %), qishloq aholisi soni 2449,8 ming kishini (62,9 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:  
2020 yil yanvar-mart**


Doimiy aholi soni **15,2 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **20,4 ming nafarni** tashkil etdi.

**3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **5,4 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Samarqand viloyati aholisining umumiy o'sishi**  
(2020 yil yanvar-mart, ming kishi)



## Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-mart, ming kishi)

	2019 y.	2020 y.
<b>Doimiy aholi soni, (1 aprel holatiga)</b>	<b>3 813,9</b>	<b>3 892,5</b>
Tug'ilganlar	19,9	20,4
Vafot etganlar	3,8	3,8
Aholining tabiiy o'sishi	16,1	16,6
Kelganlar	2,4	1,8
Ketganlar	3,6	3,3
Migratsiya sal'dosi	-1,2	-1,5
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	6,0	5,4
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	0,8	0,8
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	21,2	21,2
o'lim	4,0	3,9
aholining tabiiy o'sishi	17,2	17,3
tuzilgan nikohlar	6,4	5,6
nikohdan ajralishlar	0,9	0,9





## SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


### Doimiy aholi soni

(1 aprel holatiga, ming kishi)

	2019 y.	2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 813,9</b>	<b>3 892,5</b>	<b>100,4</b>
Samarqand sh.	540,1	548,0	100,3
Kattaqo'rg'on sh.	88,3	89,9	100,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	156,1	159,2	100,4
Bulung'ur	183,4	187,0	100,3
Jomboy	168,5	172,8	100,5
Ishtixon	248,8	254,3	100,4
Kattaqo'rg'on	268,0	273,3	100,4
Qo'shrabot	128,8	131,7	100,4
Narpay	209,3	213,1	100,3
Payariq	245,1	250,6	100,4
Pastdarg'om	347,3	354,5	100,4
Paxtachi	141,8	144,3	100,3
Samarqand	247,2	252,5	100,4
Nurobod	147,5	150,4	100,3
Urgut	497,0	509,5	100,5
Tayloq	196,7	201,4	100,5

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2020 yil 1 aprel holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,1 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urgut 13,1 %ni, Pastdarg'om 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.

**Tug'ilish.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida 20432 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,2 promilleni tashkil etib, (2019 yilning yanvar-mart oylarida 21,2 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti o'zgarishsiz qolganligini ko'rishimiz mumkin.


## Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2020 yil yanvar-mart)




**Ma'lumot uchun:** *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*




## Hududlar kesimida tug'ilganlar soni (yanvar-mart, kishi)




**Vafot etganlar.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida 3813 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,9 promilleni tashkil etdi va 2019 yilning mos davriga nisbatan (2019 yilning yanvar-mart oylarida 4,0 promille bo'lgan) o'lim koeffitsiyenti 0,1 promillega kamaygan.



## Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2020 yil yanvar-mart)




## Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-mart, ming kishi)




2020 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,6 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,3 foizi - o'simtalardan, 0,6 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,9 foizi - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 18,2 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

*(2020 yil yanvar-mart holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)*




**Tabiiy o'sish.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 16619 kishini tashkil etib, 2019 yil mos davriga nisbatan 490 kishiga (2019 yilning yanvar-mart oylarida 16129 kishi bo'lgan) ko'paydi.



**Nikoh.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 5 382 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Jomboy tumaniga (0,7 %) to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (yanvar-mart)



**Nikohdan ajralishlar.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 842 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

2019 yilning mos davriga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Samarqand shahrida (1,3 dan 1,6 promillega), Kattaqo'rg'on shahrida (1,3 dan 1,5 promillega), Paxtachi (0,9 dan 1,1 promillega), Bulung'ur (0,7 dan 0,8 promillega), va Ishtixon (0,8 dan 1,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**  
(yanvar-mart)



**Migratsiya.** 2020 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1833 kishini ko'chib ketganlar soni esa 3252 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 1419 kishi bo'lib, 2019 yilning mos davrida minus 1150 kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (*kishi*)

	2019 yil yanvar-mart	2020 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2 416	1 833
Ko'chib ketganlar	3 566	3 252
Migratsiya sa'ldosi	-1 150	-1 419

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Urgut (minus 196 kishi), Payariq (minus 193 kishi), Kattaqo'rg'on (minus 157 kishi), Paxtachi (minus 147 kishi), Ishtixon (minus 135 kishi), Pastdarg'om (minus 120 kishi), Samarqand shahrida (minus 112 kishi), Nurobod (minus 109 kishi) va Bulung'ur tumanlarida (minus 108 kishi) qayd etildi.

Migratsiya sa'ldosining ijobiy darajasi Samarqand (plus 71 kishi) va Jomboy (plus 29 kishi) tumanlarida kuzatildi.



**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi**  
(66) 235-72-35